uslubini o‘rganish bilan birga, ulardagi axloqiy jihatlar, eng yaxshi qadriyatlar singdirib boriladi. Buning natijasida talaba o‘zida yetuk mutaxassislik pozitsiyasi bilan birga, ma’naviy yetuklik sifatlarini mujassamlashtirib boradi. Shuningdek, amaliyotlarni va amaliy mashg‘ulotlarni tegishli muassasalarda o‘tash bilan yoshlarning ma’naviyati shakllantiriladi. Endi talabalarning o‘zlarini mehnatga jalb etiladi (o‘zi dars o‘tadi, o‘zi yoshlarni tarbiyalaydi va boshqa muassasalarda o‘zi faoliyat olib borishiga yo‘naltiriladi). Ular, fan sohasida yuqori natijalarga erishgan olimlar bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish orqali ijodiy faoliyatga yo‘naltiriladi.

Xulosa va takliflar. Mavzunining ustida ishlash jarayonida quyidagicha ilmiy-nazariy fikr-mulohazalar tahlil qilib o‘rganildi. Mafkuraviy tahdidlarning hozirgi vaqtda nihoyatda keng qamrovli tus olganligi va jamiyatning barcha sohalari: siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ta’lim-tarbiyaviy, iqtisodiy sohalariga mafkuraviy immunitet g‘oyasining mantiqiy rivoji sifatida shakllantirish vazifalari tabiiy ravishda kelib chiqmoqda. Chunki mafkuraviy immunitet jamiyat hayotining barcha jihatlarini bekam-ko‘st qamrab oladi. Mamlakatimiz xavfsizligini yanada mustahkamlash yo‘lida jamiyatimiz imkoniyatlarini to‘liq safarbar qilish uchun keng sharoitlar yaratadi. Ta’lim-tarbiya, mahrifat, madaniyat, siyosiy ong va siyosiy madaniyat kabi jamiyat taraqqyotining yetakchi omillari mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayonida asosiy o‘zak vazifasini bajaradi.

Tahdid har qanday muammoning rivojlanib, ziddiyat va mojaroga aylanib, yanada keskinlashib, umuminsoniy taraqqiyotga g‘ov bo‘luvchi salbiy fenomendir. Tahdid kishilik jamiyatining ilk davridan boshlab insoniyatga doimiy xavf sifatida jamiyatning barqaror rivojiga to‘sqinlik qilishga intilib, jamiyat a’zolarini hushyorlikka chorlab kelgan.

Globallashuv ziddiyatlari hosilasi sifatida ichki tahdidlarga nisbatan tashqi tahdidlar ehtimoli, soni hamda ko‘lami kengayib ketayotganligi hamda mavjud tashqi tahdidlarning ichki tahdidlarnida vujudga keltirish ehtimolining ustunligi Vatan sarhadlarini mustahkamlash, avaylash va asrashdek mashuliyatli vazifasini har birimizning zimmamizga yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 1-iyul.

(2). Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. T., “O‘zbekiston”, 2007, 10-bet.

(3). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T., O‘zbekiston, 2021, 375-bet.

(4). Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.URL–http://uza.uz/oz/politics/onun-ustuvorligi-va-insonmanfaatlarini-taminlashyurt-tara-07-12-2016

(5). https://www.mana.uz/quote/2102

Qodirov Fazliddin Yuldoshovich (QarDU “Falsafa va sotsiologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD); Fazliddin3210@umail.uz)

TARBIYA SHAKLLARINING FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantiruvchi tarbiya shakllari tahlil qilingan. Jumladan, shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantiruvchi tarbiya shakllarining tarkibiy qismlari va muhim aspektlariga aniqlik kiritilgan. Xususan, ijtimoiy tarbiyaning siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, mehnat va ekologik shakllari atroflicha o‘rganilib, mazkur tarkibiy elementlar kompleks tarzda shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi ko’rsatib berilgan. Shuningdek, jamiyat a’zolarini fuqaro sifatida kamol toptirish, ularni jamiyatni isloh qilish hamda rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritish bilan bog‘liq vazifalari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tarbiya shakllari, shaxs fuqarolik madaniyati, ijtimoiy tarbiya, siyosiy tarbiya, huquqiy tarbiya, axloqiy tarbiya, diniy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiya, ekologik tarbiya, Vatan manfaati.*

Кадыров Фазлиддин Юлдошович (старший преподаватель кафедры философии и социологии КарГУ (PhD)

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ФОРМ В ФОРМИРОВАНИИ ГРАЖДАНСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В статье анализируются формы воспитания, формирующие гражданскую культуру личности. В частности, раскрываются компоненты и важные аспекты образовательных форм, формирующих гражданскую культуру личности. В частности, подробно исследуются политические, правовые, нравственные, религиозные, эстетические, трудовые, экологические фор-*

мы социального воспитания и показывается, что эти структурные элементы играют важную роль в комплексном формировании гражданской культуры личности. В нем также раскрываются задачи развития членов общества как граждан, реформирования общества и вывода их в ряды развитых стран.

Ключевые слова: *формы воспитания, гражданская культура личности, социальное воспитание, политическое воспитание, правовое воспитание, нравственное воспитание, религиозное воспитание, эстетическое воспитание, трудовое воспитание, экологическое воспитание, интересы Родины.*

Kadirov Fazliddin Yuldoshovich (senior teacher of the Department of Philosophy and Sociology of KarSU (PhD)

THE ROLE OF EDUCATIONAL FORMS IN THE FORMATION OF CIVIC CULTURE

Annotation. *The article analyzes the forms of education that form the culture of individual citizenship. In particular, the components and important aspects of the forms of education that form the culture of individual citizenship are clarified. In particular, the political, legal, moral, religious, aesthetic, labor and ecological forms of social education are studied in detail, and it is shown that these structural elements play an important role in the complex formation of the culture of individual citizenship. Also, the tasks related to the development of members of society as citizens, the reform of society and their inclusion in the ranks of developed countries are revealed.*

Key words: *Forms of education, personal civic culture, social education, political education, legal education, moral education, religious education, aesthetic education, labor education, ecological education, the interests of the Motherland.*

Kirish. Fuqarolik madaniyati bir marta shakllanib, keyin umr mobaynida o‘zgarmaydigan fenomen emas. U tarbiya shakllari ta’sirida o‘zgarib, goho takomil topib, goho esa zaiflashib boradi. Mazkur omillar o‘z turli-tumanligi, murakkabligi va ta’sirchanligi bilan tavsiflanadi va turli mamlakatlarda turli tarzda namoyon bo‘ladi. Buning ustiga, ularning ta’sirida ayrimlik va ayrilik emas, muayyan yaxlitlilik va tizimlilik, uyg‘unlik va aloqadorlik ko‘zga tashlanadi.

Tarbiya shakllarining Vatan manfaatlariga mutanosibligini aniqlashga qaratilgan izlanishlar majmui shaxsning umri davomida o‘zlashtirgan barcha tarbiyaviy jarayonlarini, xulq-atvorlarining asosini tashkil qilgan me’yorlarda mujassam bo‘ladi. Tabiiyki, ularning barchasi ham yurt manfaatlariga mos tushadi. Mazkur tarbiya shakllari Vatan va jamiyat manfaatlariga hamohangdir. Ana shu tarbiya shakllari shaxs fuqarolik madaniyatining subyektiv omillarida jam bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, ushbu tarbiya shakllari shaxsning fuqaro sifatida shakllanganligi darajasini oshirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Fuqarolik madaniyati yaxlit muammo sifatida mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, aksincha tarbiya shakllarining har biri alohida tarzda mutaxassislar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, siyosiy tarbiyani V.L.Bozadjiyev [1;195-b.], huquqiy tarbiyani Z.N.Ibragimova [2;10-b.], axloqiy tarbiyani E.V.Andriyanov va A.V.Denikin [3;221–223-b.], ekologik tarbiyani B.N. Omonov [4;33–34-b.] va mehnat tarbiyasini esa G.H.Bekmurodovalar [5;23-b.] tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ijtimoiy tarbiya shakllarini o‘rganishda umumiylik va xususiylik, tahlillashda modellashtirish, yanada to‘liqroq aniqlik kiritishda analiz va sintez, masala yuzasidan xulosalar chiqarish uchun qiyosiy tahlil kabi mantiqiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Shaxs fuqarolik madaniyatining shakllanishida siyosiy tarbiyaning roli katta. U siyosiy madaniyatni rivojlantirishni maqsad qiladi hamda odam bolasining butun hayoti mobaynida davom etadi. Siyosiy tarbiya umrning turli bosqichlarida turli vositalarga tayangan holda olib boriladi. V.L. Bozadjiyev “Siyosiy psixologiya” asarida shunday yozadi: “Shaxs siyosiy madaniyati – siyosiy tizim va siyosiy jarayonlar ishtirokchisi insonga xos bo‘lgan hamda tarixan qaror topgan qarashlar, e’tiqodlar, qadriyatlar tizimidir; bu siyosiy faoliyat asosini tashkil qiluvchi, unga muayyan mazmun baxsh etuvchi subyektiv sohadir” [6;195-b.]. Xususan, bunday tarbiya insonning siyosiy tafakkurini shakllantiradi, uning yordamida shaxs jamiyat a’zolariga xos bo‘lgan xulq-atvor normalarini qabul qiladi. Shu asnoda uning siyosiy e’tiqodi, siyosiy qarashlari, siyosiy qadriyatlari, siyosiy fazilatlari shakllanadi. Ularning bir qismi shaxsiy yoki biror bir guruhga mansub manfaatlarga mos bo‘lsa, boshqalari Vatan manfaatlarini ifodalaydi. Vatan manfaatlari shaxsning fuqarolik faoliyati mag‘zini tashkil qiladi. Siyosiy tarbiya samarasi oshgani, uning tizimli xarakteri mustahkamlangani sayin, bir tomondan, shaxsning siyosiy madaniyati yuksalishi, ikkinchi tomondan, esa, uning fuqarolik madaniyati rivojlanishi uchun zamin optimallasha boradi.

Huquqiy tarbiya davomida huquqiy fazilat va xislatlar qaror topadi, e’tiqodning huquqqa dahldor aspektlari mustahkamlanadi, insonning huquq bilan bog‘liq qadriyatlari tizimi vujudga keltiriladi [7;10-b.].

Eng muhimi, bunday tarbiya vositasida insonning hayotiy faoliyatda huquq me'yorlaridan foydalanish malakasi hosil qilinadi. Ayni paytda, huquq me'yorlaridan voqiflik, undan foydalanish malakasi huquqiy kamolotning birgina jihati, xolos. Uning ikkinchi tomoni esa burch va majburiyatlarning anglab yetilgani bilan bog'liq. Fuqaro o'z burchini anglab yetgani unda mas'uliyat hissi uyg'onganidan darak beradi – bu jihat fuqarolik madaniyatining muhim elementi sifatida baholanishi mumkin. Binobarin, shaxs huquqiy tarbiyasi uning fuqarolik madaniyatini yangi bosqichga ko'tarish uchun poydevor yaratadi. "Huquqiy tarbiya fuqaro tomonidan jamiyat va davlat oldidagi burchlarini ongli ravishda ado etilishining muhim shartidir" [8;366-b.].

Ma'lumki, axloq "kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmuyidan" [9] tarkib topadi. Mazkur xatti-harakat va xulq-atvor normalari esa aynan axloqiy tarbiya yordamida shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Axloqiy tarbiyaning yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, uning davomida shaxs axloqiy ideallari qaror topadi. Ilmiy manbalarda ideal deganda inson hoy-u-havaslari, intilishlariga muayyan yo'nalish baxsh etadigan namuna, etalon nazarda tutiladi. "Axloqiy ideal – ezgulik va yovuzlik, do'stlik va muhabbat, kattalarga va Vatanga hurmat haqidagi to'g'ri tushunchalarning manbaidir" [10;221–223-b.]. Eng yuksak axloqiy ideal Vatanga muhabbat bilan bog'liq. Chunki axloqan komil insongina o'z Vatanini seva oladi, uning maqsad va manfatlariga fuqaro sifatida astoydil xizmat qilishga ehtiyoj sezadi. Bunday ideal millat qahramonlarining Vatan yo'lidagi faoliyatlari negizida, tarixning qizg'in pallalarida yurt manfaatlariga xizmat qilishga bel bog'lagan shaxslarning sa'y-harakatlari asosida, mutafakkirlarning Vatan haqdagi tasavvurlari asnosida shakllantiriladi.

Uzoq yillar davomida diniy tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsda muayyan diniy e'tiqodni shakllantirish bilan bog'lab kelindi. Bugungi kunda dindan nafaqat kishilarning diniy e'tiqodini shakllantirishda, balki turli siyosiy muddaolarga erishishda ham foydalanish urf bo'lmoqda. Binobarin, bugun diniy tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri kishilarning din haqidagi to'g'ri tasavvurlarini shakllantirish bilan ham bog'liq bo'lmog'i lozim. Dinning, xususan, islomning asosiy g'oyalari va tamoyillarini, ijtimoiy funksiyalarini, ahamiyatini ana shunday nuqtayi nazardan talqin qila bilgan inson soxta diniy g'oyalar asiriga aylanmaydi, ushbu g'oyalarni qurol qilib, kishilarni o'z Vataniga qarshi qayrayotgan turfa siyosiy va ekstremistik guruhlar tuzog'iga tushmaydi.

Estetik tarbiya faqat adabiyot va san'at asarlaridagi go'zallikni his qilish va undan zavqlanish tuyg'usini shakllantirish bilan bog'liq emas. To'g'ri, adabiyot va san'at asarlaridagi go'zallikni chuqur his qilishga odatlangan shaxsda, keyinchalik, nafaqat estetik, balki axloqiy, fuqarolik ideallari ham yuzaga keladi. Estetik tarbiyaning ushbu vazifalari:

▪o'tmish ma'naviy merosimizga hurmat hissini uyg'otish, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish uchun zamin yaratish;

▪ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib, jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlari uchun naf keltiradigan tomonlarini targ'ib qilishga undashdir" [12;174–175-b.] insonni fuqaro sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi. Zotan, o'z Vatani tabiati go'zalligini chuqur his qila olgan, uning urf-odatlari va an'analarini mufassal o'zlashtirgan jamiyat a'zosinigina yetuk fuqaro sifatida tan olish mumkin. Bu fuqaro yurt betakrorligiga astoydil ishongani tufayli uning manfaatlari yo'lida faoliyat ko'rsatishga moyil bo'ladi.

Mehnat tarbiyasi insonda mehnatga ehtiyojni, unga oqilona munosabatni shakllantirishga qaratilgan maqsadga muvofiq jarayondir. Mehnat tarbiyasi jarayonida inson o'zi va o'zgalar mehnatini qadrlashga, mehnat faoliyatini to'g'ri tashkil etishga, insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarni qadrlashga odatlanadi. To'g'ri tashkil qilingan mehnat tarbiyasi shaxsda mehnatsevarlik fazilatini shakllantirish imkonini beradi. "Kundalik o'zaro munosabatlarda, deb yozadi G.Bekmurodova, "mehnatsevarlik" tushunchasi kishilarni o'z xizmat vazifasini, topshirilgan topshiriqlarni bajarishi holatini, darajasini ifodalash maqsadida ishlatiladi. Shubhasiz, bunda mehnatsevarlikning mazmun va mohiyati to'la ochilmay qolaveradi. Bizning fikrimizcha, mehnatsevarlik deganda insonning faqat xizmat vazifasini bajarishi yoki o'ziga topshirilgan topshiriqni sidqidildan ijro etishi tushunilmaydi. Balki boshqalar – oila, kollektiv, xalq, millat, jamiyat, davlat manfaati yo'lida qilingan halol mehnat ham tushuniladi" [1;23-b.]. Shunga asoslangan holda, bu yo'nalishdagi mehnat tarbiyasini shaxsni fuqaro sifatida voyaga yetkazish va kamol toptirish omili sifatida baholash mumkin.

Ekologik tarbiya bir necha vazifalarni bajaradi. Ularning barchasi o'zining salmoqli ijtimoiy ahamiyati bilan tavsiflanadi. Tadqiqotchi B.Omonov bu vazifalar turkumiga quyidagilarni kiritadi: "1) ekologik ong negizida atrof-muhitga mas'uliyatli yondashuvni shakllantirish; 2) zamonaviy ekologik muammolar va ularni bartaraf etish yo'llariga doir bilimlar tizimini shakllantirish; 3) o'z hududidagi atrof-muhitni o'rga-

nish, holatini baholash va yaxshilashga doir intellektual va amaliy malakalar tizimini rivojantirish; atrof-muhitni muhofaza qilishga doir faol faoliyatga intilishni rivojlantirish" [14;33–34-b.]. Mazkur vazifalarning barchasini ham shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantiruvchi omil sifatida qayd qilish mumkin emas, albatta. Biroq ekologik tarbiyaning ekologik ong negizida atrof-muhitga mas'uliyatli yondashuvni shakllantirish bilan bog'liq vazifasi shaxs fuqarolik mas'uliyatini oshirishda, xususan, ona-Vatan tabiatini asrab-avaylash, unga oqilona munosabatda bo'lish ko'nikmasini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak, fuqarolik madaniyati jamiyatda qaror topgan subyektiv omillar ta'sirida o'zgarib boradi. Bu ta'sir stixiyali va tasodifiy emas, tizimli va zaruriy xarakterga egaligi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy tarbiyaning siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, mehnat va ekologik shakllari ta'siri subyektiv omil vazifasini o'taydi. Shaxs fuqarolik madaniyati ijtimoiy falsafaning ahamiyatli tushunchalaridan biri bo'lib, u Vatan manfaatlari bilan hamohang bo'lgan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, mehnat, ekologik va boshqa bilim va tasavvurlar, qadriyat va normalarining shakllanganligi darajasini ifodalaydi. Uning nazariy modeli ong va faoliyatga tegishli bo'lgan elementlarning murakkab sintezidan yuzaga keladi.

Shaxs fuqarolik madaniyatining shakllanishi tarbiya shakllarini umumlashtirish (1-rasm) imkonini beradi.



Tarbiya shakllari nafaqat falsafiy g'oyalarni yaxlitlash hamda ilmiy tasavvurlarni umumlashtirish, balki jamiyat a'zolarini fuqaro sifatida kamol toptirish, ularni jamiyatni isloh qilish va rivojlangan davlatlar qatoriga kiritish bilan bog'liq strategik maqsad va muddaolar atrofida birlashtirish vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Бозаджиев В.Л. Политическая психология. М., Издательский дом Академии Естествознания, 2015, с. 195.

(2). Ибрагимова З.Н. Формирование правовой культуры старших подростков в условиях школы-интерната. Автореф. дисс. ... к.п.н., Тверь, 2013, с. 10.

(3). Андриянов Е.В., Деникин А.В. Нравственный идеал как предмет воспитания. Вестник университета, 2013, № 3, с. 221–223.

(4). Омонов Б.Н. Экологик глобаллашув ва унинг Ўзбекистон экологик сиёсатига таъсири. Фалс.ф.д. (DSc) дисс. автореф., Самарқанд, СамДУ, 2022, 33–34-бетлар.

(5). Бекмуродова Г. Қишлоқ фуқаролари ижтимоий қиёфаси. Т., "Тафаккур гулшани", 2015, 23-бет.

(6). Бозаджиев В.Л. Политическая психология. М.б Издательский дом Академии Естествознания, 2015. с. 195.

(7). Ибрагимова З.Н. Формирование правовой культуры старших подростков в условиях школы-интерната. Автореф. дисс. ... к.п.н., Тверь, 2013, с. 10.

(8). Балшикеев С.Б., Карасартова М.М. Средства формирования правовой культуры личности. "Мир науки, культуры, образования", 2011, № 6-2, с. 366.

(9). https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/axloq-uz/ //Ахлоқ.//qomus.info.
(10). Андриянов Е.В., Деникин А.В. Нравственный идеал как предмет воспитания. “Вестник университета’, 2013, № 3, с. 221–223-бетлар.
(11). Шер А., Ҳусанов Б. Эстетика. Т., Ўзб.файл.миллий жамияти нашр., 2010, 174–175-бетлар.
(12). Бекмуродова Г. Қишлоқ фуқаролари ижтимоий қиёфаси. Т., “Тафаккур гулшани”, 2015, 23-бет.
(13). Омонов Б.Н. Экологик глобаллашув ва унинг Ўзбекистон экологик сиёсатига таъсири. Фалс.ф.д. (DSc) дисс. автореф., Самарқанд, СамДУ, 2022, 33–34-бетлар.

Mamadaliyeva Feruza Asrorovna (Toshkent davlat Agrar universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi;ORCID: 0009-0004-7404– 1419)

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH: JAMIYAT TARAQQIYOTINING ZARURIY OMILI SIFATIDA FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korrupsiya atamasining kelib chiqishi va uning tarixiy ildizlari tahlil qilindi. Korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelishiga olib keluvchi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillar har tomonlama yoritildi hamda bu jarayonda korrupsion holatlarning shakllanish sabablariga chuqur ilmiy yondashuv asosida o‘rganildi. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashishda Singapur davlati tomonidan qo‘llanilgan tajriba falsafiy va konseptual nuqtayi nazardan o‘rganilib, uning amaliy samaradorligi muhokama qilindi.*

Kalit so‘zlar: *korrupsiya atamasi, korrupsiyaning tarixuy ildizlari, shaxsiy manfaatlar, nomoddiy naf olish, jamiyat, axloq, qonun, huquq, siyosat.*

Мамадалиева Феруза Асроровна (доцент Ташкентского государственного аграрного университета, доктор философии (PhD) по философским наукам, независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета; ORCID: 0009-0004-7404-1419

БОРЬБА С КОРРУПЦИЕЙ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАК НЕОБХОДИМЫЙ ФАКТОР ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация*. В данной статье рассматривается происхождение термина «коррупция» и анализируются его исторические корни. Всесторонне освещаются социальные, политические и экономические факторы, способствующие возникновению коррупционных преступлений. Причины формирования коррупционных явлений изучаются с научной точки зрения. Кроме того, анализируется опыт Республики Сингапур в борьбе с коррупцией с философской и концептуальной точек зрения, обсуждается практическая эффективность антикоррупционных мер.*

Ключевые слова*: коррупция, исторические корни коррупции, личные интересы, нематериальная выгода, общество, нравственность, закон, право, политика.*

Mamadaliyeva Feruza Asrorovna (Associate Professor at Tashkent State Agrarian University Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences Independent Researcher at Tashkent State University of Economics; ORCID: 0009-0004-7404-1419)

COMBATING CORRUPTION: A PHILOSOPIAL ANALYSIS AS AN ESSENTIAL FACTOR IN SOCIAL DEVELOPMENT

Annotation*. This article explores the etymology of the term “corruption” and analyzes its historical roots. The socio-political and economic factors contributing to the emergence of corrupt practices are examined comprehensively. The reasons for the formation of corrupt phenomena are studied through a deep scientific approach. Furthermore, the article investigates the experience of the Republic of Singapore in combating corruption from a philosophical and conceptual perspective and discusses the practical effectiveness of its anti-corruption strategies.*

Keywords: *corruption, historical roots of corruption, personal interests, intangible benefits, society, ethics, law, rights, politics.*

Kirish (Introduction). Korrupsiya haqida so‘z borar ekan, avvalo, bu ijtimoiy illat hisoblanadi. Bu illat hamma davrlarda ham jamiyatning har sohadagi taraqqiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Bugungi kunda ham korrupsiyaga qarshi kurashish hamon dolzarbligicha qolmoqda. Korrupsiya ildiz otgan joyada eng oliy qadriyat bo‘lgan insonning huquqlari paymol bo‘ladi, jamiyat hayotida bo‘lsa ijtimoiy inqiroz paydo bo‘ladi. “Korrupsiya” atamasi, aslida, lotincha “corruptio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “buzish, zanglash, tizimni izdan chiqarish, pora evaziga sotilish” degan ma’nolarni anglatadi.

2017-yilning 3-yanvarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi, bunga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida aso-